TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№7**



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 602 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish ........ 14
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli ........ 20
**Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich**

BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili ........ 26
**Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.**

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish ........ 31
**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**

Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli ........ 35
**Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi**

Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху ........ 40
**Явкачев Шохзод Зайниддин углы**

Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector ........ 49
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari ........ 56
**Djalilov G'ayrat Qaxramanovich**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ........ 66
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich**

O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 71
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане ........ 76
**Salimov Sherzod Baxtiyorovich**

Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan ........ 81
**S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari ........ 88
**Muxamedov Ravshan Zafarovich**

Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari ........ 93
**Homidov Baxtiyor Rahimberdievich**

Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati ........ 99
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**

Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash ........ 105
**Uraqov Shokir Ulashovich**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari ........ 112
**Istamova Sojida Kaxarovna**

The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan ........ 117
**Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna**

Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari ........ 126
**Muradov Botir Xayat**

Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки ........ 136
**Салимова Юлдуз Исаковна**

Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance ........ 141
**Karlibaeva Gulshat**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari ........ 147
**Absamatov Anvar Ergashovich**

Перспективы цифрового развития сектора материального производства ........ 153
**С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева**

«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» ........ 161
**Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu**

Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan ........ 169
**Nigmatova Malika**

Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva) ........ 177
**Sabina Urokova**

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi ........ 184
**Daminova Barno Esanovna**

Опыт турции в управлении миграционными кризисами ........ 189
**Бегматов Хусанбек**

Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish ........ 193
**Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li**

Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari ........ 197
**Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich**

Moliyaviy autsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari ........ 202
**San'atbek Komilovish Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov**

Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari ........ 214
**Alimov Fazliddin Xalimovich**

Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации ........ 220
**Котов В.А., Шадиева Д.Х.**

Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar ........ 225
**Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li**

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari ........ 228
**Kasimova Muxlisa Anvar qizi**

Chemical industry in uzbekistan: challenges and development ........ 235
**Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna**

Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari ........ 240
**Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li**

Globallashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytiririshda yashil iqtisodiyotning ahamiyati ........ 246
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati ........ 249
**Siddikov Alisher Ismoilovich**

Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili ........ 253
**Majidov Nizom Baxramovich**

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 259
**Ermatov Nosir Tohirovich**

Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash ........ 265
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna**

Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана ........ 272
**Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна**

O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari ........ 280
**Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li**

Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики ........ 288
**Абдуллаев Абдурауф**
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat koʻrsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari ........ 299
**Kuldoshev Lazizjon Sharifovich**
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish boʻyicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ........ 303
**Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva**
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash ........ 310
**Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich**
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qoʻllashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari ........ 315
**Azizova Saodat Xabibulloyevna**
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish boʻyicha yevropa tajribasi ........ 320
**Karlibaeva Gulshat**
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sogʻlom raqobat muhitiga ta'siri ........ 325
**Luqmanov Sharifxon A'zam oʻgʻli**
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish ........ 330
**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан ........ 336
**Хамракулова Сусанна Тотуховна**
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy koʻrsatkichlarini prognozlash modellarini qoʻllash ........ 340
**Ibragimova Gulchexra Toxirovna**
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari ........ 357
**Oqmullaev Ravshan Raximjon oʻgʻli, Xodjieva Durdona Abdurasulovna**
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях ........ 361
**Muradov Botir Xayat**
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bogʻliqligi, xalqaro tajriba va Oʻzbekiston uchun tavsiyalar ........ 370
**Xushmurotov Zoyir Bektemirovich**
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market ........ 374
**Zebiniso Ganiyeva**
Farovonlikni baholash boʻyicha ilgʻor xorijiy nazariy yondashuvlar ........ 379
**Norqobilov Nusratilla Norsaitovich**
Oʻzbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash ........ 384
**Umirova Dilnoza Safarovna**
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan ........ 393
**Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod**
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market ........ 399
**Juraboev Haliljon**
Iqtisodiy oʻsish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yoʻllari ........ 404
**Haydarov Jahongir Aktamovich**
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar ........ 410
**Quvondiqov Farrux Ibragimovich**
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari ........ 418
**Dadenova Gulxan Kenesbaevna**
Механизмы усовершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана ........ 422
**Намозов Жасурбек Кувадович**
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов ........ 428
**Хазираткулов Собиржон**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран ..... 435
**Матлюбов Хуршид Жамшидович**
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari ..... 443
**Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli**
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг ..... 448
**Кайыбеков Парахат Конысбаевич**
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili ..... 454
**Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli**
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish ..... 458
**Tolibov Shoxrux Muminovich**
Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari ..... 463
**Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli**
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan ..... 468
**Sattarov R.A.**
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region ..... 476
**Daminova Barno Esanovna**
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli ..... 480
**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**
Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari ..... 485
**Salimov Akmal Alimjonovich**
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari ..... 490
**Shadiyev Alisher Xudoynazarovich**
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari ..... 496
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**
Oʻzbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari ..... 502
**Tursunov Toʻlqin Joʻraqulovich**
Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari ..... 508
**Salohiddinov Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli**
Yoshlar bandligini ta'minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati ..... 514
**Masharipov Farrux Oʻtkirovich**
Oʻzbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari ..... 521
**Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna**
Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning oʻziga xos xususiyatlari ..... 526
**Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo oʻgʻli**
Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga ta'siri ..... 530
**Islomjon Nurmukhammadov**
Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash ..... 533
**Ismoilova Savinoz Qahramon qizi**
Oliy ta'lim muassalari boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ..... 540
**Karimov Muzaffar Abdumalik oʻgʻli**
Soliq yigʻiluvchanligini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari ..... 546
**Tojibayev Farrux Baxtiyorovich**
Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan oʻrni ..... 552
**Rajabov Sirojiddin Mansurovich**
Korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir koʻrsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari ..... 561
**Choriyorov Behruz Ilhom oʻgʻli, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**
Yashil texnologiyalar yordamida Oʻzbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yoʻllari ..... 567
**Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari ..... 572
**To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета ..... 577
**Назарова Ирода Ибрагим кизи**

Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish ..... 583
**Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich**

Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане ..... 587
**Абидова Дилфуза Игамбердиевна**

Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана ..... 593
**Салим Дониёров**

O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi ..... 598
**Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li**

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NORASMIY SEKTOR VA AHOLINI NORASMIY MEHNAT BILAN BANDLIGINING TARKIBIY TUZULISHI

**Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li**
Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining
"Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasi katta o'qituvchisi
Elektron pochta: nuriddin.qoraboyev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzilishi hamda ushbu tuzilishga kiruvchi ish va xizmatlar turlari bayon qilingan. Shuningdek, norasmiy sektor bilan aholini norasmiy mehnat bilan bandligining o'zaro farqlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: norasmiy sektor, norasmiy iqtisodiyot, xufyona iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, norasmiy ish bilan bandlik, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, rasmiy sektor, iqtisodiyot, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, aholini ish bilan bandligi.

Abstract: This article presents the structural composition of the informal sector and informal employment in the Republic of Uzbekistan, detailing the types of work and services included within this structure. Additionally, it outlines the differences between the informal sector and informal employment of the population.

Key words: informal sector, informal economy, shadow economy, hidden economy, informal employment, self-employed individuals, formal sector, economy, small business and private entrepreneurship, employment of the population.

Аннотация: В данной статье представлен структурный состав неформального сектора и неформальной занятости в Республике Узбекистан, подробно описаны виды работ и услуг, входящих в эту структуру. Кроме того, в ней изложены различия между неформальным сектором и неформальной занятостью населения.

Ключевые слова: неформальный сектор, неформальная экономика, теневая экономика, скрытая экономика, неформальная занятость, самозанятые лица, формальный сектор, экономика, малый бизнес и частное предпринимательство, занятость населения.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori tarkibida norasmiy sektor va norasmiy mehnat bandligi muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tobora dolzarb tus olmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda bandlik darajasini oshirish, aholini barqaror daromad manbalari bilan ta'minlash hamda rasmiy iqtisodiyot ulushini kengaytirish yo'lida qator institutsional islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, norasmiy mehnat bilan band aholining salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bu holat davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik va ijtimoiy himoya siyosatini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Norasmiy mehnat faqatgina rasmiy statistik ko'rsatkichlardan chetda qolmay, balki ijtimoiy sug'urta, mehnat huquqlari va soliq majburiyatlari doirasidan ham chiqib ketgan mehnat shakli bo'lib, aholi turmush darajasi, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mehnat shartnomasi tuzilmagan, soliqqa tortilmaydigan yoki tartibga solinmagan mehnat faoliyatlari norasmiy sektorning asosiy qismini tashkil qiladi. Ayni vaqtda bu sektor qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan millionlab fuqarolarning iqtisodiy faolligini qamrab olgan.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, norasmiy bandlik mehnat bozoridagi struktura muammolarining indikatoriga aylangan bo'lib, iqtisodiyotning rasmiylashtirilmagan qismini anglatadi va soliq tushumlarining kamayishiga, mehnat munosabatlarining huquqiy jihatdan noaniqligiga olib keladi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida norasmiy mehnat bandligini tahlil qilish, uning tarkibiy tuzilmasini aniqlash, hududiy va tarmoqlar bo'yicha differensial xususiyatlarini o'rganish hamda norasmiy mehnatni rasmiylashtirish bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqish iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada norasmiy mehnat tushunchasi, uning xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy asoslari, tarkibiy xususiyatlari, tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimoti, hamda iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda olib borilayotgan rasmiylashtirish siyosati samaradorligi baholanib, norasmiy bandlikni kamaytirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar asosida takliflar ishlab chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzilishini ilmiy jihatdan o'rganishda xalqaro va mahalliy olimlarning tadqiqotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Norasmiy mehnat bozorining xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar va bu sohada davlat siyosatining roli borasida De Soto tomonidan ilgari surilgan "informal economy" nazariyasi asosiy nuqtayi nazar sifatida qaraladi. U rasmiy institutlarning samarasizligi natijasida ko'plab kishilar norasmiy mehnat faoliyatini afzal ko'rishini ta'kidlagan. Hart zen va Nord tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, norasmiy mehnat nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarga, balki ayrim rivojlangan davlatlarga ham xos bo'lib, u yerda ham reglamentatsiyaning qattiqligi va soliqqa tortish tizimidagi murakkabliklar odamlarni norasmiy ishga undaydi.

O'zbekiston kontekstida B. Haydarov va M. Qurbonov norasmiy bandlikning hududiy xususiyatlarini, uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini va natijalarini chuqur tahlil qilgan. Ular norasmiy sektorni ijtimoiy barqarorlikka tahdid sifatida emas, balki iqtisodiy tizimdagi elastiklikning bir ko'rinishi deb baholagan. Shuningdek, A. Rashidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq holda norasmiy bandlikning gender va yosh guruhlari kesimidagi farqlari, ularning ta'lim darajasi va iqtisodiy ishtiroki o'rganilgan.

Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotlar esa norasmiy sektorda band bo'lgan aholi salmog'i, bandlik shakllari, xavfsiz mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya va rasmiylashtirish mexanizmlarini baholashda muhim statistik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ILO'ning "Women and Men in the Informal Economy" nomli hisobotida ayollar va erkaklarning norasmiy sektordagi ishtiroki va ularga nisbatan mavjud mehnat tengsizligi ochib berilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda esa so'nggi yillarda davlat siyosatida rasmiylashtirishni rag'batlantirish, elektron mehnat shartnomalari tizimini joriy etish va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Bandlik vazirligining ma'lumotlari orqali mehnat bozorida norasmiy sektorning tahliliy portreti shakllantirilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ochiq ma'lumotlar bazasi hamda xalqaro tashkilotlar (ILO, WB) nashrlaridan olindi. Tahlil jarayonida taqqoslash, guruhlash va grafik tahlil usullari orqali norasmiy bandlikning tarkibiy xususiyatlari aniqlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida norasmiy iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, xufyona iqtisodiyot va norasmiy sektordagi ish bilan band aholi muhim o'rin tutadi. Bu esa aniq raqamlari mavjud bo'lmagan iqtisodiy tendensiyalarni kuzatishga imkon beradi. Mamlakatimizda norasmiy sektorni legallashtirishni boshqarish orqali aholining o'zini o'zi ish bilan bandligi va rasmiy sektor ko'lamining o'sish tendensiyasiga erishish ko'zda tutilgan. Norasmiy sektorni legallashtirishni boshqarish mamlakat iqtisodiy samaradorligini oshirishga, qonunchilikni qo'llashga hamda huquqni muhofaza qilish tizimlari va choralarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Biroq boshqaruv tizimini to'g'ri tushunmaslik, hozirgi norasmiy sektor holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi O'RQ-847-son[1] Qonunida mamlakat aholisining bandligini ta'minlash va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, norasmiy bandlik ulushini qisqartirish, shuningdek o'zini o'zi band qilgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu maqola ana shu vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning bir qismi sifatida norasmiy sektorni o'rganish dolzarb hisoblanadi, garchi uning ko'lamini aniqlash murakkab bo'lsa-da. Bugungi kunda norasmiy bandlik ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyot va mehnat bozorida muhim o'rin egallab, bu hududlarda yashovchi aholining daromadi, mahsulot ishlab chiqarishi va turmush darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Eng avvalo, norasmiy sektor va aholining norasmiy mehnat bilan bandligini bir-biridan farqlash muhimdir.

1 https://www.lex.uz/uz/docs/-6502532

Norasmiy sektor — rasmiy va norasmiy korxonalarda hamda uy xo'jaliklarida yollangan, biroq mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan ijtimoiy-iqtisodiy mehnat munosabatlaridir.

Aholining norasmiy mehnat bilan bandligi — mehnat bozorining tarkibiy qismi bo'lib, mehnat munosabatlari rasmiylashtirilmagan, soliq organlarida ro'yxatda turmaydigan va rasmiy ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlarga ega bo'lmagan holatlarni o'z ichiga oladi.

Mehnatni norasmiy tashkil etish shakllari — bu ishchi kuchining ishga jalb etilishi, biroq rasmiy mehnat shartnomasisiz yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan mehnat normalariga rioya qilinmagan holatlardir. Bunday holatlar, odatda, ishchilarning ijtimoiy himoyasini zaiflashtiradi va rasmiy statistikada aks etmaydi.

1-rasmda O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzilishi keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzilishi [2]

Rasmiy sektordagi norasmiy ish bilan bandlik ikki yirik tarmoqdan iborat bo'lib, birinchisi — yirik va o'rta korxonalar tomonidan ish bilan ta'minlash, ikkinchisi esa davlat tomonidan ish bilan ta'minlash tarmog'idir. Yirik va o'rta korxonalar tomonidan ish bilan ta'minlash tarmog'iga agentlik orqali yollangan xodimlar, jumladan, tozalovchi ishchilar, qurilish yordamchilari, xavfsizlik xizmati xodimlari, ombor ishchilari va ofis yordamchilari kiradi. Shuningdek, vaqtinchalik ishchilar – yuk tashuvchilar, dehqonchilikda mavsumiy yordamchilar va tadbirlarda xizmat ko'rsatuvchilar ham ushbu tarmoq doirasida faoliyat yuritadi. Mavsumiy ishchilar tarkibiga paxta va hosil yig'im-terimi ishchilari, qishloq xo'jaligi brigadalari, bog'dorchilik va uzumchilikda ishlovchilar kiradi. Bundan tashqari, pudratchilar – qurilish ustalari, ta'mirlash ustalari, usta va kichik ta'mirlash ishchilari ham ushbu tizimda norasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanadi. Xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ishlovchilar qatoriga IT mutaxassislari, marketing dizaynerlari, trening o'tkazuvchi mutaxassislar kiradi. Soatbay haq to'lanadigan ishlovchilar esa uyda bolaga qarovchilar, uy tozalovchilar va massajchilar kabi kasblarda faoliyat yuritadi.

Davlat tomonidan ish bilan ta'minlash tarmog'iga esa mahalliy hokimiyatlar tomonidan ishga qabul qilingan obodonlashtirish xodimlari, ko'cha supuruvchilari, botanika va ko'kalamzorlashtirish brigadalari kiradi. Tuman jamoat markazlari tomonidan ishga olingan vaqtinchalik ijtimoiy ishchilar hamda jamoat nazoratchilari ham mazkur toifaga mansub. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi noturar joylarda xizmat ko'rsatadigan ustalar va madaniy markazlarda xizmat ko'rsatuvchilar ham shu toifadagi norasmiy bandlik tarkibida qaraladi.

Norasmiy sektordagi ish bilan bandlik esa to‘rt asosiy tarmoqqa bo‘linadi. Birinchi tarmoq – o‘zini o‘zi ish bilan band qilganlar bo‘lib, bu toifaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-son[2]li qaroriga muvofiq, ilovada keltirilgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlarini bajarayotgan shaxslar kiradi. Ushbu toifa ichida sherikchilik asosida ishlovchilar – tikuvchilik ustaxonasida ishlovchilar, avtomoyka sheriklari, tamaddixonalarda sherik tarzida ishlovchilar va yakka tartibdagi ishlovchilar – ro‘yxatdan o‘tmagan taksi haydovchilari, pishiriq va taom tayyorlovchi uy bekalari, uyda tikuvchilik bilan shug‘ullanuvchi ayollar, kompyuter ta’mirlovchilar mavjud.

Ikkinchi tarmoq – freelance ishchilar bo‘lib, ular onlayn kontent yaratuvchilar, freelance tarjimonlar, grafik dizaynerlar, ilova va veb-sayt ishlab chiquvchilar kabi mustaqil faoliyat yurituvchi shaxslardir. Uchinchi tarmoq esa o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlovchi tadbirkorlar tomonidan ta’minlangan ishchilarni qamrab oladi. Bu yerda PQ-4742-sonli qaror ilovasida ko‘rsatilgan ish va xizmat turlarida faoliyat yuritayotgan shaxslar tomonidan bajariladigan bir martalik ishlar ko‘zda tutiladi va ularning xizmatidan foydalanuvchilar rasmiy shartnoma asosida emas, balki yakka tartibda foydalanadilar. To‘rtinchi tarmoq mustaqil xizmat ko‘rsatish turini ifodalaydi. Bunga maishiy xo‘jalikda soatbay ishlaydigan xodimlar – uy xizmatchisi, bolaga qarovchi, uy tozalovchi, uy oshpazi, uy bog‘boni, keksalarga qarovchi shaxslar hamda ko‘cha savdogarlari – muzqaymoq, meva-sabzavot, fastfud mahsulotlari (hot-dog, somsa), suv yoki sharbat va kiyim-kechak sotuvchilari kiradi.

## XULOS VA TAKLIFLAR

Mehnatni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish orqali norasmiy bandlikni kamaytirish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Bu borada eng avvalo mehnat shartnomasini elektron tarzda rasmiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ayniqsa mikro va kichik tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan rasmiy ishga olish mexanizmlarini joriy etish orqali mehnat munosabatlarini qonuniylashtirishga qulay sharoit yaratiladi.

Soliq va ijtimoiy to‘lovlar tizimini yengillashtirish esa norasmiy ishchilarni rasmiy sektor tomon jalb etishning muhim vositasidir. Jumladan, patent asosida ishlovchilar uchun soliq yukini kamaytirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga yordamchilarni rasmiy ishlatishda soliq imtiyozlari berish, yangi rasmiy ish boshlaganlarga esa vaqtinchalik, ya’ni 1–2 yil davomida ijtimoiy sug‘urta badallaridan chegirmalar taqdim etish mumkin.

Aholining, ayniqsa yoshlar va ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish ham rasmiy bandlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois rasmiy bandlikning afzalliklari haqida ommaviy tushuntirish ishlarini kuchaytirish, Mehnat kodeksi va ishchi huquqlari bo‘yicha bepul o‘quv kurslarini tashkil etish ijobiy natijalar beradi.

Norasmiy bandlikni qisqartirishda raqamli nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ish joylarida rasmiylashtirilmagan ishchilarni aniqlash bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish, shuningdek, raqamli kameralar va QR kodli ruxsatnomalar orqali ruxsatsiz faoliyat yuritayotgan ish joylarini aniqlash imkoniyati kengaytirilishi lozim.

Yoshlar va xotin-qizlar uchun bandlik dasturlarini kengaytirish orqali ularning rasmiy sektordagi ishtirokini ta’minlash mumkin. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun rasmiy ish o‘rinlari yaratishga davlat subsidiyalarini ko‘paytirish, ayollar uchun uydan turib rasmiy ishlash imkonini beruvchi freelance loyihalarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan sanaladi.

Norasmiy mehnatni kamaytirish — bu nafaqat ishchilarning huquqiy himoyasini ta’minlash, balki davlat budjetiga tushumlarni oshirish, iqtisodiyotni “soyalilikdan” chiqarish va barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishishning asosiy omillaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga norasmiy bandlikni qisqartirishga qaratilgan o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-847-sonli Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/-6502532
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4742-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4849607
3. H. De Soto. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. – New York: Basic Books, 2000. – 276 p.
4. K. Hart. Informal Income Opportunities and Urban Employment in Ghana. – Geneva: ILO, 1973. – 45 p.
5. International Labour Organization. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. – Geneva: ILO, 2018. – 157 p.
6. B. Haydarov, M. Qurbonov. O‘zbekistonda norasmiy sektorning rivojlanish omillari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 204 b.
7. A. Rashidov. Norasmiy mehnat bozorining demografik xususiyatlari. – Toshkent: Mehnat, 2021. – 168 b.

2 https://lex.uz/docs/-4849607

# YASHIL

**IQTISODIYOT&TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 7**



© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz